# “O‘zkimyosanoat” AJ The Bizz Awards xalqaro mukofotiga sazovor bo‘ldi

// 10 July 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-the-bizz-awards-xalqaro-mukofotiga-sazovor




“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati xalqaro miqyosda yana bir muhim yutuqqa erishdi — kompaniya The Bizz Awards mukofotiga sazovor bo‘ldi.

The Bizz Awards — bu 2005-yildan beri Butunjahon biznes konfederatsiyasi (WORLDCOB) tomonidan ta’sis etilgan va jahon miqyosidagi eng nufuzli biznes mukofotlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi — korporativ boshqaruvning yuqori darajasi, barqaror o‘sish, ijtimoiy mas’uliyat hamda biznes yuritish etikasining yuqori standartlariga sodiq qolib faoliyat yuritayotgan kompaniyalarni e’tirof etishdir.

Dunyo bo‘ylab 130 dan ortiq davlatlardan ishtirokchilarni qamrab olgan mazkur mukofot doirasida “O‘zkimyosanoat” AJ "Innovatsion, malakali va tizimli ishlovchi yetakchi" nominatsiyasida g‘olib deb topildi. Bu esa kompaniyaning xalqaro bozorlardagi nufuzi, sanoat sohasidagi barqaror o‘sishi hamda islohotlarga asoslangan boshqaruv tizimining xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilganidan dalolat beradi.




Shuningdek, Jamiyat rahbariyati ham The Bizz Awards mukofotining bir qator individual nominatsiyalarida muvaffaqiyatli deb topilib, yetakchi rahbarlik, professional boshqaruv, strategik qarorlar qabul qilishdagi samaradorlik va tashkilotni xalqaro standartlar asosida boshqarish bo‘yicha mukofotlarga sazovor bo‘ldi.

“O‘zkimyosanoat” AJ kelgusida ham innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar va barqaror rivojlanish orqali milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishda davom etadi.

**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**